

# INTELLEKTIDA NUQSONI BO'LGAN KICHIK MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR BILAN OLIB BORILADIGAN KORREKSION ISHLAR SAMARADORLIGI

Jizzax Davlat Pedagogika instituti  
Maxsus pedagogika kafedrası o'qituvchisi  
Djurayeva Sohíba Barat qizi

**Annotatsiya:**Maqolada intellektida nuqsoni bo'lgan kichik maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishning mazmuni, maqsadi, ijtimoiy moslashuv masalalari yoritilgan. Korreksion o'quv-tarbiyaviy ish natijalari kattalarning bola bilan muloqoti, bolalarning o'zaro muloqot etish xarakteri bilan belgilanadi. Kompleks diagnostik tekshiruv natijalari asosida bolaga oilada va maktabgacha ta'lim muassasasida yagona talablar qo'yiladi.

**Kalit so'zlar:** intellektida nuqsoni bo'lgan bola, korreksiya, kompensatsiya, ijtimoiy moslashuv, psixologik korreksiya

Intellektida nuqsoni bo'lgan kichik maktab yoshdagi bolalarga maxsus ta'lim - tarbiya berish va korreksion-rivojlantirishning bosh maqsadi-yosh avlodni istiqlol mafkurasi asosida har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida tarbiyalash va sog'lom tengdoshlari bilan birgalikda maktab ta'limini davom etishiga tayyorlashdan iboratdir. Darhaqiqat kelajagimiz baxti, jamiyatimiz ko'rki, xalqimiz iftixori va g'ururimiz hisoblangan bolalarni har tomonlama kamolotga yetkazish, yetuk va jamiyatga munosib inson qilib voyaga yetkazish ularni chinakam bilim, mexnatsevar va vatanparvar, yuksak e'tiqodli qilib tarbiyalash hozirgi kunda maktabgacha ta'limining asosiy vazifasidir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'z nutqida “Yosh avlodga bogcha, maktab va oliygoxda sifatli ta'limtarbiya berishni yulga kuyamiz, ular jismoniy va ma'naviy soglom, vatanparvar insonlar bulib ulgayishi uchun barcha kuch va imkoniyatlarni safarbar etamiz.<sup>1</sup> “ deya e'tirof etdilar.

---

<sup>1</sup> Sh.Mirziyoyev “Yangi O'zbekitonda erkin va farovon yashaylik” Toshkent 2021-yil 11-bet.

Intellektida nuqsoni bo'lgan bolalar ijtimoiy moslashuvini shakllantirish, shuningdek yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash, ularni hayotda o'zlarini ijobiy o'rinlarini topishda maktab ta'limiga, unda faoliyat ko'satayotgan pedagoglardan ta'lim-tarbiya jarayoniga bo'lgan yangicha qarashlarni shakllantirish, ularni amaliyotga joriy qilish mahoratiga ega bo'lishni taqozo etadi. Bugungi kunda davlatimiz miqyosida o'tkazilayotgan islohatlar xalqimiz hayotini yaxshilanishga, kelajak tayanchi- yosh avlodni intellektual hamda ma'naviy yetuklikga yetkazish muamosini ham xal qilishga qaratilgan ekan, aqli raso farzandlarimiz bilan bir qatorda aqliy va ruhiy rivojlanishi orqada qolgan bolalarning ham mavjudligini va ularga e'tiborni ko'proq qaratishimiz lozimligini unitmasligimiz kerak. L.S.Vigotskiyning shaxsning yaqin rivojlanish zonasini yaratish va bola faoliyati korreksion ishning asosiy mazmuni ekanligi haqidagi ta'limotini yodda tutish muhim. Korreksion ish shakli bolaning psixologik rivojlanishidagi nuqsonlarni, chetga chiqishlarni tuzatish, kompensatsiya etishga qaratilgan ta'sirlar majmuini ifodalaydi. Rivojlanishdagi turli kamchiliklarni bartaraf etishda logopedik ta'sirning asosiy shakli ta'lim-tarbiya, korreksiya, kompensatsiya, adaptatsiya va reabilitatsiya hisoblanib, kompleks korreksion ish shakllaridan foydalanish, ikkilamchi nuqsonlarning kelib chiqishining oldini olishga xizmat qiladi. Korreksion mashg'ulotlar davomida turli ish shakllari olib boriladi:

1.O'yin terapiyasi. U nafaqat korreksion maqsadda, balki profilaktik hamda psixogigiyenik maqsadlarda qo'llaniladi. O'yin terapiyasining yakka va guruhli shakllari mavjud bo'lib, bolada muloqot qilishida muammolari bo'lsa, u holatda guruhli terapiya , yakka terapiyaga qaraganda foydaliroq hisoblanadi. O'yin terapiyasida turli o'yin materiallari qo'llaniladi: "oila" o'yini, "qo'g'irchoqlar bilan o'ynash", qurish o'yinlari, o'yin-mashqlar.

2.Artterapiya - psixoterapiyaning maxsus shakli bo'lib, u san'atga - tasviriy va ijodiy faoliyatga asoslangan. Uning maqsadi - bolaning o'z fikri, dunyoqarashi, o'z-o'zini bilishini san'at orqali rivojlantirishdan iboratdir. Artterapiya psixologning bolalar bilan ramziy darajada muloqot etish vositasi sifatida

qo'llaniladi. Badiiy ijod timsollari barcha ongosti jarayonlarni, jumladan qo'rquv, ichki nizolar, xotiralar, tushlarni aks ettiradi. Artterapiya usuli ichki "MEN" hissiga asoslanib, inson chizayotganida, qurayotganida (spontan) ko'ruv obrazlarida aks etadi. Artterapiya o'tkaziladigan mashg'ulotlar joyi shunday bo'lishi kerakki, bunda bolalar shovqin qila olishlari, bemalol harakatlana olishlari mumkin bo'lib, psixolog esa ularni faoliyat jarayonlariga aralashmaydi. Maktabgacha yoshda bola intellektual rivojlanishini korreksiyalash sensor imkoniyatlarni idrok etish, ko'rgazmali-obrazli tafakkur va belgi-ramziy funksiyani, ixtiyoriy diqqat va xotiraning boshlang'ich shakllarini rivojlantirish vazifalarini o'z ichiga oladi. Aqli zaif bolalar maxsus muassasalarda tarbiyalanishlariga qaramay, ular rivojlanishidagi nuqsonlarni to'laqonli korreksiyalash va kompensatsiya etish, butun ruhiy rivojlanishni maksimal darajada normal holatga yaqinlashtirish lozim. Erta boshlangan korreksion ish aqliy rivojlanishdagi nuqsonlarni bartaraf etishda hal qiluvchi rolni o'ynab, u bola rivojlanishidagi ikkilamchi nuqsonlarning kelib chiqishining oldini olish imkonini beradi. Aqli zaif bolalar rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lganliklari bois, kattalarning maqsadga yo'naltirilgan ta'limiy ta'siriga muhtojlar. Ijtimoiy tajribaning tashqi ta'sirlar vositasiz (spontan) o'zlashtirilishi, ayniqsa erda yoshda ularda deyarli amalga oshmaydi. Ta'lim va tarbiyani tashkil etish uchun bunday bolalarda atrof-olamga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirish darkor. Bunda didaktik o'yinlarning ahamiyati muhim bo'lib, bunday o'yinlar bolalar diqqatini jalb etishi, ularni qiziqitira olishi kerak. Kattalar doimiy ravishda bolalarda faoliyatga bo'lgan ijobiy emotsional munosabatlarni shakllantirishlari kerak. Aqli zaif bolaga atrof-olamda mo'ljal olish usullarini egallashi, predmetlarning sifat va munosabatlarini ajratishi va belgilashi, u yoki bu harakatni tushunish uchun normal bolaga qaraganda ko'proq takrorlashlar talab etiladi. Asosiy korreksion vazifa ilk va maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarda topshiriqni bajarish davomida mo'ljal olishning qidiruv usullarini shakllantirish, buning asosida esa, predmetlarning sifat va munosabatlariga qiziqishni uyg'otishdan iborat. O'yin va mashqlar bolalarda predmetlarning sifat va

munosabatlariga diqqatni rivojlantiradi, to'laqonli idrokni shakllantiradi. Nutqni muloqot jarayoniga to'g'ri va o'z vaqtida kiritish uchun, predmet, uning sifati, xususiyati bilan tanishtirishning ilk bosqichlarida bolani ushbu sifatlarni boshqa predmetlardan ajratish, ulami taniy olish va idrok etishga o'rgatish, shundan keyingina so'zni namuna sifatida berish kerak. Korreksion ishda taktil-harakat idrokini rivojlantirish muhim bo'lib, u ham anglashdan boshlanib, tasavvurlarning shakllanishi bilan yakunlanadi. Eshituv idrokining rivojlanganligi ham o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lib, u aqli zaif bolaga uni o'rab turgan atrof-olamda mo'ljal olishga ko'maklashib, tovush signali asosida harakatlanish, ko'pgina muhim obyektlarni farqlash va bilish imkonini yaratadi. Idrokning to'laqonli to'g'ri rivojlanishi sabab tafakkurning ba'zi jihatlarini ham rivojlantiradi. Bola predmetni uning qismlari bilan birgalikda to'g'ri tasavvur etsa, u butunning buzilish sababini anglab yetishi mumkin. Idrokdan tafakkurgacha bo'lgan yo'l ko'rgazmali-obrazli va mantiqiy tafakkurning rivojlanishiga ta'sir etadi. Tafakkurning barcha turlarini shakllantirishga doir ishning to'g'ri va o'z vaqtida tashkil etilishi muhim ahamiyatga ega, chunki intellektning buzilishi mazkur bolalar rivojlanishidagi asosiy nuqson hisoblanadi. Aqli zaif bolalar korreksiyasining asosiy yo'nalishlari va vazifalari:

- 1.Kattalar bilan emotsional munosabatni, ular bilan hamkorlik etishga yo'naltirilganlikni shakllantirish, bolani ijtimoiy tajribani o'zlashtirish usullariga o'rgatish, kattalar bilan emotsional muloqot etishni va elementar ko'rsatmalarni bajarishni shakllantirish, diqqatni, taqlid etishni, namuna asosida harakatlarni o'zlashtirishni rivojlantirish.

- 2.Yozuvga tayyorlash, mehnatga doir topshiriqlarni bajarish maqsadida qo'llarning ko'ruv-harakat koordinatsiyasini rivojlantirish, ushlab olishni rivojlantirish, o'zaro bog'langan harakatlarni, qo'llar harakatiga taqlid etishni rivojlantirish, barmoqlar harakatini rivojlantirish, qo'l panjasi harakatini rivojlantirish.

- 3.Sensor rivojlanish. Shakl, hajm, rangni idrok etishni shakllantirish, predmetning to'laqonli obrazini, atrof-olamni idrok etish va unda mo'ljal olishni shakllantirish, taktil-harakat idrokini rivojlantirish, eshituv idrokini rivojlantirish, nutqiy va

nutqiy bo'lmagan eshituvni rivojlantirish.

1. Tafakkuri rivojlantirish, idrok etishdan tafakkur etishga o'tish, idrok etishdan ko'rgazmali-obrazli va mantiqiy tafakkur elementlariga o'tish, sabab tafakkur elementlarini, ko'rgazmali-obrazli tafakkurni rivojlantirish.

2. Nutqiy rivojlanish. Nutqiy muloqotni rivojlantirish (ishchi elementar muloqotni), nutqning bilish funksiyalarini rivojlantirish (so'z ma'nosini kengaytirish, aniqlashtirish va umumlashtirish).

Maktabgacha yoshda shaxsiy doira faol shakllana boshlaydi. Maktabgacha yoshda shaxsiy doirani korreksiyalashning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

1. Ontogenezning inqiroz davrlari sababli vujudga kelgan hulq-atvorning negativ qirralarini korreksiyalash va profilaktika qilish. Bolalar ruhiy rivojlanishining sakrash yo'li bilan sodir bo'lishi ko'pincha yosh inqirozi (3 yosh) vaqtida maktabgacha yoshdagi bolalar hulq-atvorida uzoq vaqt davomida injiqlik, qaysarlik, agressiya, qarshilik kabi salbiy reaksiyalar mustahkamlanib qolishi mumkin. Bu va boshqa hulq-atvorning "yosh" xususiyatlarining o'z vaqtidagi korreksiyasi ularning bola ruhiyatida mustahkamlab olish imkoniyatidan va hulq-atvordagi ikkilamchi nuqsonlarning shakllanishidan tez va samarali qutqarishga imkon beradi.

Yosh inqirozlari davrida salbiy hulq-atvorning profilaktikasi:

-rivojlanishning yosh inqirozlari - hulq-atvorda negativ qirralarning paydo bo'lishi;

-hissiy rivojlanishning korreksiyasi, hissiy-ruhiy rivojlanishdagi mavjud nuqsonlar korreksiyasi;

-nevrotik rivojlanishning, hissiy notinchlikning profilaktikasi;

-talab etilayotgan sabablar va ehtiyojlarni rivojlantirish yo'li bilan -sabab-ehtiyoj doirasining korreksiyasi;

-hulq-atvor korreksiyasi;

-shaxsning individual-tipologik xususiyat va sifatlarini korreksiyalash va rivojlantirish.

Korreksion vazifalar bilan bir qatorda, ota-onalar uchun profilaktik vazifalarni ham ajratish zarur hisoblanadi. Psixologik maslahatlar amaliyotida ota-onalar bilan ishlashning muhim tarkibiy qismi bola rivojlanishidagi o'ziga xosliklar, sodir bo'lishi mumkin bo'lgan rivojlanish tahminlari haqida ma'lumotlar berish va aniq tavsiyalarni ishlab chiqish hisoblanadi. Ota-onalarga bola rivojlanishining xususiyatlariga doir to'la va haqqoniy ma'lumotlarni ota-onalarning dunyoqarashlari va ijtimoiy holatning o'ziga xosliklarini inobatga olgan holda ma'lum qilish maslahat jarayonidagi psixologik yordam berishning zaruriy bosqichi hisoblanadi. Kichik maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan korreksion ish dasturi intellektida nuqsoni bo'lgan bolalarning aqliy, nutqiy, ahloqiy va jismoniy rivojlanish xususiyatlarini, shuningdek, bola ruhiy rivojlanishining o'ziga xosligi, uning yoshi va yetakchi faoliyat turining xarakterini inobatga olib tuzilishi kerak. Unda tarbiyaviy-ta'limiy ishning korreksion yo'nalganligini ta'minlovchi o'qitishning sharoitlari, mazmuni va metodlari ochib beriladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Muzaffarova, X. (2021). AQLI ZAIFLIK TUSHUNCHASI TALQINIDAGI NAZARIY XATOLARNING SALBIY OQIBATLARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, (2).
2. Muzaffarova, X. (2020). OQUVCHILAR SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA DIDAKTIK OYIN VA MASHQLARNI TANLASH TEXNOLOGIYASI. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
3. Muzaffarova, X. (2020). Мактабгача таълим жараёнига мультимедиа технологиясини татбиқ этиш. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
4. Muzaffarova, X. (2020). Pedagogik texnologiyalar va ularni maxsus ta'lim mussasalariga tadbiiq etish. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
5. Muzaffarova, X. (2020). Мактабгача таълим жараёнига мультимедиа технологиясини татбиқ этиш. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
6. Музаффарова, Х. Н., & Эгамназаров, М. Ю. (2017). Махсус таълимда болалар интеллекти даражасини аниқлашда психологик-педагогик эксперимент ўтказиш технологияси. *Современное образование (Узбекистан)*, (7).

7. Тангирова, Д., & Музаффарова, Х. (2014). Нарушения фонетических норм, встречающиеся в речи учащихся, и пути их исправления. *Молодой ученый*, (20), 738-740.
8. Muzaffarova, X. (2020). ДИДАКТИК ЎЙИН ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ– ПЕДАГОГИК ФЕНОМЕН СИФАТИДА. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
9. Muzaffarova, X. (2020). Логопедик машғулотларда болалар сўз бойлигини ошириш бўйича тавсиялар. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
10. Muzaffarova, X. (2020). Duduqlanish va uni korreksiyalash bo'yicha olib boriladigan logopedik ishlar: Хотин-қизларнинг фан, таълим, маданият ва инновацион технологияларни ривожлантириш соҳасидаги ютуқлари 2019 йил 17-18 май 305 бет. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
11. Muzaffarova, X. O'qitish jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish masalalari. *Bola va Zamon jurnal*. T, (2-2019).
12. Muzaffarova, X. (2020). Kar bolalarda og'zaki nutqni shakllantirish. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
13. Temurova, G. (2020). O 'YIN–ESHITISHIDA NUQSONI BO 'LGAN BOLALARNING NUTQIY QOBILIYATLARINI FAOLLASHTIRISH OMILI SIFATIDA. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
14. Muzaffarova, X. (2020). Duduqlanuvchi bolalar bilan olib boriladigan logopedik-korreksion ishlarni to 'g 'ri tashkillashtirish usullari. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
15. Haqberdiyev, J. (2021). MAXSUS MAKTAB-INTERNATDA KOKLEAR IMPLANTLI BOLALARDA NUTQIY MULOQOTNI SHAKLLANTIRISH. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, (2).
16. Muzaffarova, X. (2020). Maxsus maktab internatlarda olib boriladigan korreksion tarbiyaviy ishlarning mazmuni. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
17. Muzaffarova, X. (2021). Ақли заиф болаларни ташхислаш ва уни амалга оширишга қўйиладиган талаблар. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, (1).
18. Музаффарова, Х. (2020). ОКВЧИЛАР САВОДҚСОНЛИГИНИ ОШИРИШДА ДИДАКТИК ОЙИН В.А. МАШКЛАРНИ ТАНЛАШ ТЕХНОЛОГИЯСИ. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
19. Djurayeva, S. (2020). MAXSUS TA'LIM JARAYONIDA PEDAGOGI TECHNOLOGIYALARNING SAMARADORLIGI. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
20. Djurayeva, S. (2020). The development of speech activity in children with hearing impairment. *Архив Научных Публикаций JSPI*.

21. Djurayeva, S. (2020). Kar bolalarda nutqiy faoliyatning rivojlanishi. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
22. Djurayeva, S. (2020). Ijtimoiy sherikchilik asosida imkoniyati cheklangan shaxslarga majmuaviy yordam ko'rsatish. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
23. Djurayeva, S. (2020). INNOVATSION TEXNIKALAR YORDAMIDA YO'QOTILGAN ESHITUVNI KOMPENSATSIYALASH. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
24. Djurayeva, S. (2020). YAKKA MASHG'ULOTLARDA KAR BOLALAR NUTQINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART SHAROITLARI. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
25. Djurayeva, S. (2020). Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini kompyuter texnologiyalari orqali rivojlantirish. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
26. Djurayeva, S. (2020). Kichik maktabgacha yoshdagi intellektida nuqsoni bo'lgan bolalarda ijtimoiy moslashuvni shakllantirish. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
27. Djurayeva, S. (2020). Kar bolalar boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqining psixologik-pedagogik tavsifi. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
28. Qizi, D. S. B. (2020). KAR BOLALAR NUTQINING RIVOJLANGANLIK DARAJASI. *Science and Education, 1(2)*.
29. Djurayeva, S. (2020). MAXSUS TA'LIM JARAYONIDA PEDAGOGI TEXNOLOGIYALARNING SAMARADORLIGI. *Архив Научных Публикаций JSPI*.